

**TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMALARIDA
SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNING USULLARI**

*Jamshid Abdulaev Djamilovich–
yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), "Adliya a'lochisi"
Email:jamshidb003fb@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida shartnomaviy munosabatlarning usullari xususan, og'zaki kelishuv asosida, yozma shaklda, muayyan tibbiy muolajalar uchun yozma rozilik usulida, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi (shifoxona, tibbiy klinika yoki shifokor) va buyurtmachi (bemor) yoki ularning oilasi o'rtasida tibbiy xizmat ko'rsatish shartlari, to'lov tuzilishi va sug'urta, shuningdek, dastlabki tibbiy maslahat tarzida, muntazam tibbiy xizmat ko'rsatish hamda bepul tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: bemor (buyurtmachi), tibbiy tashkilot, shartnomaviy munosabatlar, "tibbiy tashkilotning haqligi", tibbiy sug'urta, tibbiy sug'urta qoplamasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi PQ-2838-sonli "Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

Tibbiy xizmatlarni ko'rsatish shartnoma munosabatlari bemor (buyurtmachi)lar va tibbiy tashkilot, shuningdek, tibbiyot xodimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi murakkab sohalardan bir hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunida tibbiy xizmat ko'rsatishning huquqiy asoslari berilgan. Xususan, qonunda: "Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlarida faqat qonunchilikda belgilangan tartibda qo'llanilishiga ruxsat etilgan profilaktika,

tashxis qo'yish hamda davolash vositalaridan foydalilanadi”¹. Ushbu shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish, amalga oshirish va tartibga solish usullari va vositalari shartnomaning ikkala tarafi—bemorlar va tibbiy tashkilotlarning o'z huquq va majburiyatlariga rioya qilishlarini ta'minlaydigan huquqiy va amaliy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida qo'llaniladigan usullar va vositalar masalasini tizimli va bat afsil tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Fuqarolarning fuqarolik-huquqiy tartibga solish va shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilish nazariyasining asosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. С.С.Алексеева, Б.С.Антикова, С.Н.Братуся, О.С.Иоффе, Г.К.Матвеева, Р.Л.Нарышкиной, М.П.Ринга, В.И.Серебровского, А.П.Сергеева, А.А.Собчак, Е.А.Суханова, В.А.Тархова, Ю.К.Толстой, Е.А.Флейшиц, И.Я.Хейфеца, ББ.Черепахина, Г.Ф.Шершеневич ва boshqa olimlar subyektiv huquq tushunchasi va mazmuni va uni himoya qilishning huquqiy vositalari haqidagi o'z g'oyalarini ilmiy asoslashgan”².

Mazkur jarayonda dastlab tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarini o'rnatish usullari masalasida to'xtalishimiz kerak. Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzish usuli deganda shartnoma shartlarini tuzish va rasmiylashtirish jarayoni tushuniladi. Bu o'z navbatida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi doirasida muzokaralarni hamda mazkur shartnomani rasmiylashtirishgacha bo'lgan jarayonni ham o'z ichiga oladi. Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi bu turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Shunday shartnomalardan biri taraflar tomonidan og'zaki kelishuv asosida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarini tuzish hisoblanadi. Bundan ko'pincha jiddiy bo'limgan tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarda foydalilanadi. Ayrim manbalarda bu turdag'i shartnomaviy munosabatlar - nazarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son; 31.05.2024-y., 03/24/928/0384-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son

² А.В.Тихомиров. Проблемы правовой квалиф вреда здоровью при оказании медицинских услуг. Специальность 12.00.03 -Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва-2008. С 2.

tutilgan shartnoma ya'ni, buyurtmachi (bemor)ning xatti-harakatlari va tibbiy yordam ko'rsatuvchining xatti-harakatlari o'zaro kelishuvni bildirganda, og'zaki kelishuv yo'li bilan tuziladi. Mazkur masalada keyinroq juda murojaat qiladigan tibbiy tashkilot va buyurtmachi (bemor) tushunchalariga aniqlik kiritib olsak.

Tibbiy tashkilot – “Sog‘lijni saqlash xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasidagi belgilangan tibbiy faoliyatni professional asosda amalga oshiradigan tashkilot sifatida tavsiflanadi”³.

Buyurtmachi (bemor) – “Pullik tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi bo'yicha buyurtmachi ko'pincha sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarga duch kelgan yoki kasallik (profilaktika choralar) arafasida bo‘lgan yoki allaqachon davolangan, ammo reabilitatsiya, tiklash choralarini talab qiladigan shaxs hisoblanadi”⁴.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining yozma shaklda tuzilishida asosan har bir mamlakatning milliy qonunchiligidagi ruxsat berilgan shartnomaga xos unsurlardan foydalaniladi. Yozma shaklda tuzilgan tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari har ikki taraf – buyurtmchi (bemor) va tibbiy tashkilot (tibbiyot xodimi) shartnoma shartlariga yozma yoki og'zaki ravishda aniq rozi bo‘lganda yuzaga keladi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq mazkur shartnomalardagi yozma kelishuvlar murakkab tibbiy amaliyotlar, ixtisoslashtirilgan muolajalar yoki yuqori xavfli tibbiy aralashuvlarni o‘z ichiga olgan munosabatlarni ifodalaydi. Biroq post Sovet mamlakatlarining aksariyatida bu masala asosan “tibbiy tashkilotning haqligi” yoki namunaviy shaklda tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari andozasi modeliga asoslanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati xalqaro huquq normalari bilan mustahkamlangan. Jumladan, “Turli mamlakatlardagi vaziyatlar ulardagi farqlar tufayli bir xil emas qonun hujjatlari, milliy sog‘lijni saqlash xizmatlarini tashkil etish, iqtisodiy shartlar, ijtimoiy, madaniy va axloqiy

³ Горбунова О. В. Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУиТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskikh-uslug> (дата обращения: 13.11.2024).

⁴ Горбунова О. В. Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУиТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskikh-uslug> (дата обращения: 13.11.2024).

qadriyatlar; ammo, mavjud bemorning huquqlarini himoya qilish siyosatining ba'zi umumiy tamoyillari har bir mamlakat sharoitlariga to'g'ri moslashtirilishi kerak. Biz biz barcha manfaatdor tomonlarni boshlash va qayta ko'rib chiqishga chaqiramiz ushbu siyosatni amalga oshirishning bir nechta strategiyalari komponentlarni o'z ichiga oladi”⁵.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarining yana bir turi sifatida muayyan tibbiy muolajalar uchun yozma rozilik usulidan foydalilanildi. Bu usulda asosan jarrohlik, klinik sinovlar yoki boshqa yuqori tibbiy xavfli aralashuvlar kabi tibbiy protseduralar uchun tibbiy tashkilot yoki tibbiyot xodimlari ko'pincha bemorlardan nafaqat davolanishning xavflari va foydalarini ko'rsatadigan, balki buyurtmachi(bemor)ning tibbiy jarayonni tushunishi, uning oqibatlari roziligini tasdiqlaydigan batafsil rozilik shakllarini imzolashni talab qilinishi bilan xarakterlanadi.

“Agar bemor ixtiyoriy ravishda xayr-ehson qiladigan resurs unga tegishli bo'lsa, uni amalga oshirish uchun ixtiyoriy rozilik berilgan yoki bemorning o'zi tomonidan so'ralgan zarar (masalan, organlar va to'qimalarni transplantatsiya qilishga rozilik va boshqalar) qonuniy deb tan olinadi. (masalan, abort qilish huquqi) va zarar etkazuvchining xatti-harakatlari qonun va jamiyatning axloqiy tamoyillarini buzmaydi”⁶.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasining yana bir turi – tibbiy xizmat ko'rsatuvchi (shifoxona, tibbiy klinika yoki shifokor) va buyurtmachi (bemor) yoki ularning oilasi o'rtasida tibbiy xizmat ko'rsatish shartlari, to'lov tuzilishi va sug'urta bilan bog'liq har qanday kelishuv asosida ko'rsatilgan rasmiy yozma shartnoma sifatida imzolanadi. Bunda taraflar mazkur shartnoma qamrovida ko'rsatilishi lozim tibbiy xizmatni barcha xususiyatlarini kelishib olishadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari masalasida ayrim davlatlar tajribasida

⁵ Декларация и политике в области обеспечения прав пациента в Европе. Принято Европейским советанием по правам пациента, Амстердам, Нидерланды, март 1994.

https://med.sumdu.edu.ua/images/content/doctors/Deontology/Patients_rights_WHO.pdf

⁶ Вильгоненко Ирина Михайловна, Степанова Людмила Петровна К вопросу о защите прав потребителей медицинских услуг при внедоговорных отношениях // Вестник ВУИТ. 2014. №1 (80). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-zashchite-prav-potrebiteley-meditsinskikh-uslug-pri-vnedogovornyh-otnosheniyah> (дата обращения: 13.11.2024).

tibbiy sug‘urta mazkur shartnomalarning bandi sifatida kiritilishi yoki alohida tibbiy sug‘urta shartnomalari ham tuzilishi ham mumkin. Bunda buyurtmachi(bemor)ning davolanishi sug‘urta bilan qoplanganda, tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi va sug‘urta kompaniyasi o‘rtasida shartnomalar tuziladi. Buyurtmachi (bemor) ushbu shartnomaning bevosita ishtirokchisi bo‘lishi yoki aksincha bo‘lmasligi ham mumkin. Ammo mazkur munosabatlarda qamrov shartlari ularning huquq va majburiyatlariga ta’sir qilishi mumkin.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarining yana bir turi dastlabki maslahat bilan bog‘liq hisoblanadi. buyurtmachi (bemor) tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi tibbiy tashkilotga tashrif buyurganida, nazarda tutilgan shartnoma shunchaki tibbiy yordam so‘ragan buyurtmachi (bemor) va tibbiy xizmatlarni taklif qilishga rozi bo‘lgan tibbiy tashkilot tomonidan tuziladi. Bu ikkala taraf ham tibbiy xizmat ko‘rsatish standartlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarga kirishi bilan bog‘liq taxminga asoslanadi.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalari doirasida muntazam tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq muntazam konsultatsiyalar, tibbiy profilaktika xizmatlari yoki doimiy tibbiy muolajalar uchun nazarda tutilgan shartnomalar tushuniladi. Ayrim hollarda agar bemor davolanishga rozi bo‘lsa yoki tibbiy maslahatni qabul qilsa, shartnoma rasmiy hujjatlarsiz ham amalga oshirilishi ham mumkin.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonida bir tomonlama shartnomalar ya’ni bir tomon majburiyat olishiga oid shartnomalar ham tuzilishi mumkin. Ayrim hollarda tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi bir tomonlama shartnoma tuzishi mumkin, bunda bir taraf – tibbiy tashkilot) xizmatni amalga oshirish majburiyatini oladi, boshqa taraf buyurtmachi (bemor) esa tibbiy xizmat ko‘rsatilgandan keyin tibbiy xizmat narxini to‘lashi shart. Bemorning ahvoli og‘ir bo‘lgan hollarda shoshilinch tibbiy yordam – kasalxona yoki tibbiy tashkilot favqulodda vaziyatda bo‘lgan bemorni rasmiy shartnoma tuzmasdan davolashi mumkin, bunda xizmatlar uchun to‘lov davolanishdan keyin amalga oshiriladi. Bizning mamlakatimizda bunday turdagiligi tibbiy xizmat tekin hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi PQ-2838-sonli “Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining

faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda har yili Chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni bajarishga zarur mablag‘lar ajratilishini nazarda tutsin”⁷ jumllalari fikrimizni isbotlaydi.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish masalasida narx ancha nizoli holat hisoblanadi. Bu borada dunyo tajribasida xilma-xil amaliyot mavjud. Jumladan, “Belorusiya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Moldova qonunchiligi pullik tibbiy xizmatlarni narqlash muammosini shunday hal qiladi:

- oliv ijro etuvchi hokimiyat organi, sog‘liqni saqlash vazirligi va boshqa vakolatli organlar tomonidan pullik tibbiy xizmatlarning ayrim turlari uchun tariflarni tartibga solish;
- davlat sog‘liqni saqlash tashkilotlari uchun narxlarni cheklash mexanizmini qonun darajasida birlashtirish”⁸.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonida bepul yoki Pro bono tibbiy xizmatlari ba’zi sog‘liqni saqlash tibbiy tashkilotlari yoki muassasalari xayriya klinikalari kabi muayyan sharoitlarda bepul tibbiy xizmatlarni taklif qilishlari mumkin. Bunda tibbiy tashkilotning davolash majburiyati bir tomonlama bo‘lib, buyurtmachi(bemor)da to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar majburiyati bo‘lmasisligi mumkin, ammo o‘ziga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatning sifatini talab qilish huquqiga ega hisoblanadi.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarida shartnomaviy munosabatlarning usullari qaysi yo‘nalishida olib borilishidan qat’iy nazar buyurtmachi (bemor) sihat-salomatligini yaxshilashga, shuningdek, uning konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy huquqlarini amalga oshirilishiga putur yetkazmasligi lozim deb xulosa qilishimiz mumkin.

⁷ 16.03.2017 yildagi PQ-2838-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 11-son, 159-modda, 35-son, 923-modda; 03.10.2020-y., 07/20/4847/1347-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son)

⁸ Косолапов А.В. Сравнительный анализ регулирования медицинских услуг как гарантии конституционного права на охрану здоровья в России и зарубежных странах // Вестник ВГУ. Серия: Право. 2017. №3 (30). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-regulirovaniya-meditsinskikh-uslug-kak-garantii-konstitutsionnogo-prava-na-ohranu-zdorovya-v-rossii-i> (дата обращения: 13.11.2024).

Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son; 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son; 31.05.2024-y., 03/24/928/0384-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son
2. А.В.Тихомиров. Проблемы правовой квалификации вреда здоровью при оказании медицинских услуг. Специальность 12.00.03 -Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва-2008. С 2.
3. Горбунова О. В. Общая характеристика договора оказания медицинских услуг // Вестник ВУиТ. 2017. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschaya-harakteristika-dogovora-okazaniya-meditsinskikh-uslug> (дата обращения: 13.11.2024).
4. Декларация и политике в области обеспечения прав пациента в Европе. Принято Европейским совещанием по правам пациента, Амстердам, Нидерланды, март 1994.
https://med.sumdu.edu.ua/images/content/doctors/Deontology/Patients_rights_WH_O.pdf
5. Вильгоненко Ирина Михайловна, Степанова Людмила Петровна К вопросу о защите прав потребителей медицинских услуг при внедоговорных отношениях // Вестник ВУиТ. 2014. №1 (80). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-zaschite-prav-potrebitely-meditsinskikh-uslug-pri-vnedogovornyh-otnosheniyah> (дата обращения: 13.11.2024).
6. 16.03.2017 yildagi PQ-2838-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-y., 11-son, 159-

modda, 35-son, 923-modda; 03.10.2020-y., 07/20/4847/1347-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 07/21/5199/0721-son)

7. Косолапов А.В. Сравнительный анализ регулирования медицинских услуг как гарантии конституционного права на охрану здоровья в России и зарубежных странах // Вестник ВГУ. Серия: Право. 2017. №3 (30). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitelnyy-analiz-regulirovaniya-meditsinskih-uslug-kak-garantii-konstitutsionnogo-prava-na-ohranu-zdorovya-v-rossii-i> (дата обращения: 13.11.2024).